

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## NOVELLALARDA TIRIK SO‘ZLAR TILLASHUVI

Ayimxan Eshniyazova

O‘zJOKU dotsenti

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

[ayimxon.eshniyazova@mail.ru](mailto:ayimxon.eshniyazova@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Ahmad A‘zamning o‘zbek adabiyotiga yangicha ohang, yangi qarashlar olib kirgan novellalari tadqiq va talqin qilinadi. Yozuvchi mansub avlodning konsepsiyasi o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** novella, shaxs, fikrlayotgan inson, voqelik, roviy.

Shaxslar o‘zining mustaqil dunyoqarashi, fikrlari bilan zamonga qarab tuslanmaydi. Ahmad A‘zam haqiqiy shaxs edi. Yozuvchi, munaqqid, tarjimon, ssenarist, telejurnalist Ahmad A‘zam o‘z ijodi haqida shunday deydi: “Qanaqa yozuvchi ekanimga o‘zim bir narsa deyishim qiyin, bahoni kitobxon beradi. Men qanaqa yozuvchi bo‘lishga intilganimni gapiryapman. Shu o‘qish, o‘rganishlar maromida o‘quvchi kitobxonni hurmatlab, unga aql o‘rgatavermaslik, hayot haqida uning o‘zi ham biladigan xulosalarni tiqishtirmaslik, tendensiya-yu mafkuradan qochish, xolis turib tasvirdan fikr chiqarib olishni o‘quvchining o‘ziga qoldirib yozish yo‘lini tanlashga harakat qildim”<sup>1</sup>. Ahmad A‘zamning boshqalarga o‘xshamaydigan usulda adabiy maydonga kirib kelgan asarlari Q.Yo‘ldosh, D.Quronov, N.Eshonqul, U.Hamdani, M.Qo‘chqorova, M.Sheraliyeva, F.Burhonova va Bibi Robia‘ Saidovanning maqolalarida<sup>2</sup> tahlilga tortildi.

“Ahmad A‘zam tengdoshlaridan farqli o‘laroq, biror yozuvchi yoki milliy adabiyotga taqlid qilmadi, fikrlash tarzi ham, mulohazakorligi ham sof o‘zbekcha edi. So‘zdan foydalanish mahorati, asarlarining betakror uslubi, jonli tili, ramzlar bilan yo‘g‘rilgan o‘ziga xos fabulasi – hamma-hammasi yangilik edi”<sup>3</sup>.

Ahmad A‘zam hikoya, qissa, roman va novellalar yaratdi. Adib novellalari mavzu yangiligi, fikrlayotgan, o‘zini tahlil qilish asnosida jamiyatni, insoniyatni tahlil qilayotgan roviy qahramonlari bilan ajralib turadi. Novellalar mutolaasida inson o‘ziga nazar tashlaydi, ichki “men”iga quloq tutadi, men kimman va qanday

<sup>1</sup> Ahmad A‘zam. Adabiy asar til hodisasi // Adabiy suhbat. – T.: Yoshlik, 2012. №6.

<sup>2</sup> Yo‘ldosh Q. Kulgiga esh taqdirlar tasviri // Maqola. 2010. 23-noyabr. – B.9; Yo‘ldosh Q. Ruhiyat jilolari. So‘z yo‘lqini. – T.: G‘afur G‘ulom, 2018. – B. 348-356; Quronov D. Zavqimdan bir shingil...// Sharq yulduzi, 2012. № 6. – B. 8; Nazar Eshonqul. O‘ziga o‘zi gapiryotgan odam // Kitob bandasi. – T., 2014. – B. 328-331; Hamdani U. O‘zbek romanchiligida an‘ana va novatorlik // Abdulla Qodiriy va yangi o‘zbek adabiyoti. – T.: Yangi asr avlodi, 2022. – B.67; Sheraliyeva M. Inson tabiatining teran mushohadalari // O‘zAS, 24.08.2012; Qo‘chqorova M. O‘zi bilan o‘zi gaplashayotgan odam obrazi // Yoshlik, 2019. №6. – B.52-57; Sheraliyeva M. Ahmad A‘zam hikoyalarida kinoya. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ahmad-azam-hikoyalarida-kinoya.html>; Saidova B.R. Romanlarda tush ramzlari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2016, 5-son; Saidova B.R. Uslubiy va g‘oyaviy hamohanglik // Yoshlik, 29.10.2018; Burhonova F. A.A‘zam hikoyalarida davr ruhi va ma‘naviy olam talqini.//O‘zbek tili va adabiyoti, 2020. №6. – B.72-76.

<sup>3</sup> <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/ahmad-azam-haqida.html>

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

yashadim, bugungi insoniyatning dardi, tashvishi va oqib borayotgan umr o’zani haqida mulohazaga boradi.

Novella – italyanча yangilik, lotincha yangi ma’nosini beradi. Nasrning kichik janri, kichik hikoya. Adabiyotshunoslikda novellaga hikoyaning bir turi yoki hikoya terminining sinonimi degan qarashlar bor. Shu bilan birga mutaxassislar novellani tafsilotlarga boy rivoya emas, “sof syujet san’ati”, unda dramaga xos xususiyatlar ustun deb hisoblaydi. Adabiyotshunos olim D.Quronov novellani hikoyaning bir shakli ekanligini, faqat sujet-kompozitsion xususiyatlari bilan farqlanishini aytadi. Novella (novellistik hikoyaning) kompozitsion qurilishini quyidagicha ko’rsatadi: 1) roviyning xolis “kuzatuvchi” mavqeyida turishi; 2) hikoya qilinayotgan voqeaning yuz berish vaqti bilan hikoya qilinish vaqtining bir-biriga mosligi; 3) “sahnaviylik” – o’quvchi nazdida hayot sahnasida kechayotgan voqeani tomosha qilayotganlik illuziyasining yuzaga keltirilishi; 4) sujetning shiddatli rivojlanishi-yu kutilmagan burilishlarga egaligi. Novella sujetida bir-biriga bog’liq voqealar rivoji emas, balki bir hayotiy holat ichidagi o’sish, rivojlanish kuzatiladi<sup>4</sup>.

Ahmad A’zam “Bir kam dunyo”, “Gul ko’tarib kelayotgan erkak”, “Ketgan birov edi”, “Nima qilib qo’ygan ekanman”, “Odamoviga uch yoqlama qarash”, “O’zim bilan o’zim”, “Qulf tili”, “Tugmachagul”, “Vatan haqida yozishga kuchim yetmagan she’rim” kabi salmoqli novellalar yaratdi. Bu novellalar yozuvchining o’ziga va insonlarga aytmoqchi bo’lgan dil so’zlari, mulohazalari edi. Novellalarda insonning o’ziga gapirishi asosida o’zligini anglashi, yashashning mohiyati, umr degan voqelikni anglash ehtiyojida yaratilgan yaratilqlar deyishimiz mumkin va bunda olam va insonlarni tiyrak nigoh bilan kuzatayotgan qalamkashni ko’ramiz. Novellalarning qahramonlari o’ziga o’zi gapirayotgan, o’zini ko’zguga solayotgan odamlar.

Nazar Eshonqul: “Bu novellalarda o’zbek nasrida nisbatan yangi qahramon – jamiyatda, hayotda o’z o’rnini anglagan, anglash orqali uyg’onayotgan fikr, uyg’onayotgan o’zlikni, uyg’onayotgan “men”ni anglatuvchi qahramon paydo bo’ldi. Bu novellalarda “men”dan boshqa qahramon yo’q: ijobiy ham, salbiy ham, jabrlovchi ham, jabrlanuvchi ham, ezuvchi va eziluvchi ham, hukmga mustahiq ham, hukm etuvchi ham ana shu “men”ning o’zi, ya’ni o’zi bilan o’zi gaplashayotgan odam”<sup>5</sup>.

Ahmad A’zamning “*Bir kam dunyo*” novellasi oddiy turmush voqealariga asoslanadi. Ikki xil vaziyat, kayfiyat tasvirlangan. 1) insonning xursand paytida hamma narsa ko’ziga chiroyli ko’rinishi, dunyodagi eng baxtiyorlardan ekanligini his

<sup>4</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug’ati. – T.: Akademnashr. 2013. – B. 205-206.

<sup>5</sup> Eshonqul N. O’ziga o’zi gapirayotgan odam // Kitob bandasi. – T.: Akademnashr. 2022. – B. 329.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

qiladi. Qahramon ham shu kayfiyatda, xotini fidoiy, hamma narsa yashashga ishtiyoq, zavq beradi. “Ketyapman. Tepamda ko‘m-ko‘k osmon, qarshimda qirmizi quyosh. Qitig‘i kelgan tentakka o‘xshab benihoya xursandman, kulib yuboray deyman. Negaligini bilmayman, bilishni ham istamayman. O‘z-o‘zidan, hech bir sababsiz zavqim toshadi”<sup>6</sup>.

Roviy qahramon yo‘lda bir yo‘lovchi bilan kim o‘zarga o‘ynab kayfiyati buziladi va hamma narsa ko‘ziga xunuk ko‘rinadi. Xotining ovqatdan boshqa narsani o‘ylamasligi, o‘zining kulguli ishlari: “O‘z-o‘zimdanda xafa bo‘lib ketdim: bolaligim qachon qoladi. Kap-katta odam, ota bo‘laturib, ko‘chada yurgan kimqayoqdagi bezori bilan o‘zishib yuribman-a”<sup>7</sup>. Odamning dunyoga qaysi ko‘z bilan boqishi muhimligi, inson xarakterining turfaligi, o‘zgaruvchanligi holati tasvirlanadi. Inson yashayotgan hayotda, ayni damda yaxshilik qidirsam yaxshilik topa oladi, yomonlik qidirsam yomonlikni ham o‘sha damda topadi. Axir dunyo bir kamda.

Yozuvchining “*Gul ko‘tarib ketayotgan erkak*” novellasi roviy tomonidan kuzatilgan voqelik tasvirlanadi va talqin qilinadi. Boshlanma: “Guldasta ko‘targan erkak shaharning gavjum ko‘chasidan o‘tib boryapti. Kattakon va ko‘rkam, gul bozoridagi eng chiroyli, shu chiroyiga yarasha eng qimmat guldasta. Balki qimmat sotish uchun maxsus parvarishlangan gullardan terilgandir”<sup>8</sup>. Roviy gul ko‘targan erkakka turli rakursdan qarab munosabat bildiradi, baho beradi. Dastlab u insonning saxiyligini aytadi, chunki imkoniyati bor eng katta, eng chiroyli va qimmat guldastani sotib olgan. Taqdim etmoqchi bo‘lgan insonini shu darajada qadrlar ekan, u saxiy inson.

Ikkinchi mulohaza guldasta erkakka emas, erkak guldastaga yarashmayotganday, erkakni yoshidan ulug‘roq ko‘rsatayotganday, kamsitayotganday ko‘rinadi. “Go‘yo chiroyi endi ochilgan bir bokira suluv qizning belidan tutamlab ketayotganga o‘xshar edi. Go‘yo shunaqa guldasta ko‘tarib yurish uchun odamning nimasidir hammanikidan ortiqcha, nimasidir hammanikidan kam bo‘lishi kerakdek”. Novellada gul ko‘targan erkakning tashqi ko‘rinishi haqidagi mulohazadan keyin, gulni nimaga va kimga sotib olingani tashqaridan kuzatilib taftish va tahlil qilinadi. Gulning kimga sotib olingani haqidagi taxminiy va tahliliy mulohazalar: do‘stining tug‘ilgan kuniga olingan. Qarshi fikr: Do‘stga bunday katta va ko‘rkam guldasta olish shart emas; onasiga atab olgan – ammo erkak bunday qimmat guldasta bilan onasini quvontirarmikan; erkak guldastani otasiga atagan –

<sup>6</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-bir-kam-dunyo-novella>

<sup>7</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-bir-kam-dunyo-novella>

<sup>8</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-gul-ko-tarib-ketayotgan-erkak-novella>

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

lekin otalarga bolalar hech vaqt gul sovg‘a qilarmikan? Erkak guldastani xotiniga olgan – unday emas, sababi xotiniga atab gul ko‘tarib ketayotgan erkak yashnab, yosharib ketadi, odamlar unga ajabsinib emas, havas bilan qarar edi.

Xullas, shaharning katta ko‘chasi, tumonatning ichida bir erkak kattakon va chiroyli guldasta ko‘tarib ketyapti ekan. “Qarang, bir erkak tumonatning ichida o‘zining kattakon va chiroyli guldastasini ko‘tarib ketyapti! Odamning tinchi buzilmaydimi?..”<sup>9</sup>

Roviyning kuzatishlari, mulohazalari shunday xulosa beradi: erkak hali baxtiyor emas, shu xaridi bilan baxtini topmoqchi, guldastani tutishi uning baxtini yo bu yoqli, yo u yoqli qiladigandek, erkak guldastani kimga olib ketayotganini bildirmoqchi emas, lekin guldasta uni fosh qilib gullab ketyapti. Erkak o‘n sakkiz yoshda emas, sevganining ham bu yoshda emasligi aniq. Chunki guldasta juda katta va qimmat, hammaning e‘tiborini tortadigan edi. Keyingi mulohaza erkak uni sevadi, ammo tanlaganining uni sevish sevasligi noma'lum bu erkakning gul ko‘tarishidan ayon, erkak mag‘rur emas. “Hozir esa guldastaning o‘zi mag‘rur, qiyg‘och, yoniq, erkak esa guldastani o‘zi emas, boshqa erkak ko‘tarib ketayotgandek xijolatda ham edi”<sup>10</sup>. Yozuvchi novellada insonni tashqi tomondan kuzatadi. Suvrat siyratni oshkor qilishini asoslashga harakat qiladi. Gul ramziy obraz, gul tanlov. Gul ko‘targan yigit emas, u erkak. Baxtini izlayotgan, tanlaganini izlayotgan erkak. Novella kuzatuvchi insonlarning gul ko‘targan erkak haqidagi taftish va xulosalari asosida inson jamiyatning bir bo‘lagi ekanligi, jamiyatdan ayro yashay olmasligi, jamiyat bilan har doim hisoblashib yashashi, umr qonuniyati haqida mulohazalar uyg‘otadi.

“*Ketgan birov edi*” novellasida oddiy insonning oylik maoshga zo‘rg‘a kun ko‘rishi va boshqa uyga ko‘chish munosabatidagi xayollari beriladi. Novellada roviy va kuzatuvchi qahramonning o‘zi. Hamma eski narsalarini oladi, chunki tashlab ketsa xafa bo‘ladigandek xayolga boradi. Eski tovoni bosligan uch yillik tuflini oldi, qalpoq ham juda eski, kiyilmagan, tokchada chang bosib eskirgan. Shu qalpoqni tashlab ketadi. Hikoya oxirida qahramon eski uyida tokchadagi qalpoq va o‘zini xonada tasavvur qiladi. Yangi uyga ketgan ko‘chgan u emas birov edi: “Yangi ijaramda ich-etimni yeb o‘tiribman-u, lekin xuddi eskisi – endi keraksiz narsalarning hammasi olib ketilgan, faqat tokchasida bitta eng kerakli narsa – qalpoq turgan xonada unga qarab o‘tirgandekman. Hammasi ko‘z oldimda, shiftini tortanak bosgan xona, bo‘m-bo‘sh, men-u tokchadagi qalpoq! Ketmaganman, sal taxi sal ochilgan qalpoqqa qarab

<sup>9</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-gul-ko-tarib-ketayotgan-erkak-novella>

<sup>10</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-gul-ko-tarib-ketayotgan-erkak-novella>

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘tiribman. Hali ko‘chib ketmaganman!”<sup>11</sup> Kechagi kunini unutmagan, qadriyatlardan, xotiralardan voz kechishni istamayotgan, o‘zi bilan o‘zi kurashayotgan qahramon tasvirini o‘qiymiz. Eski uydan “ketgan birov edi”.

Ahmad A'zamning “**O‘zim bilan o‘zim**” turkum novellasi 7 qismdan iborat. Har bir qismga nom berilgan. 1) “*Odamning ismi*” – Odamning ismi insonlikning siyratini ko‘rsatishi, ism aytib chaqirilganda inson ekanligingni anglash haqida. Qahramon butun dunyo Ahmadlarini yig‘adi xayolan, hamma odam degan ism ostida birlashishini anglab yetadi va men endi “Hoy odam!” deb chaqiraman deydi. Nomidan qat’iy nazar barcha insonlar insoniyat bayrog‘i ostida birlashsa, birlik va kuchning qudratli timsoliga aylanadi xulosasi beriladi.

2) “*Jim o‘tirgan odam*” – o‘quvchini o‘zi bilan suhbat qurayotgan bosh qahramonning ichki dunyosiga singdiradi. U o‘zining borligi, aslida kim ekanligi haqida fikr yuritadi va o‘ziga o‘zi haqida savollar beradi. Men ham go‘yo jim o‘tiribman. Ko‘nglimdagi so‘zlar osmondagi yulduzlarcha ko‘p. Ular bir joyga to‘planganda xursand bo‘laman, tarqalganda ko‘nglim xira tortadi. So‘zlar bezovta tillashayotir – meni tillashayotir! Kimligingni bilmay turib qanday yashayapsan deyman o‘zimga o‘zim. Odam yashashi uchun o‘zining kimligini bilishi kerak. Lekin hozir o‘zim bilan o‘zim gaplashyapman, nimani yashirardim va nima manfaat topardim. Novella inson borlig‘ining eng muhim masalalarini taftish qilishga, ichki muloqotga, o‘z haqiqatimizni izlashga, o‘z hayotimiz va o‘zimizni qanchalik yaxshi bilishimiz haqida o‘ylashga undaydi. Jumladan: “– Senmi? - dedim o‘zimga-o‘zim. - Sen - ko‘ngliga ganjinani ko‘mma qilib, qayerga ko‘mgani esidan chiqib ketgan qashshoqsan. Shu xalqning bir bo‘lagi emas, qatorning ichiga kirib olib, qator qayoqqa yetaklasa, shu yoqqa og‘adigan, o‘zini qator bilan panalab, tirikchilik tashvishida g‘imirsib yurgan jo‘ngina bir... mayli... odamsan...”<sup>12</sup> Odam fikrlayotganda o‘zi bilan o‘zi gaplashadi. O‘zini tadqiq, taftish qilish asnosida uyg‘onayotgan qalb iztirobini o‘qiymiz. Asarda hayot mazmuni va insonning jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq muhim ijtimoiy masalalar ham ko‘tariladi. Ko‘zini bir nuqtaga tikib, jimgina o‘tirgan odamning ko‘nglida nimalar kechayotganini chetdan qaragan odam eshitmaydi. Lekin eshitish kerak. Odamning o‘zi bilan o‘zi yolg‘iz qolgandagi jimlikda boshqalar ham eshitishi lozim bo‘lgan tirik so‘zlar tillashadi.

3) “*Ko‘zgudan qaragan odam*” – Odam yoshi qaytgan sayin ko‘zguga esh bo‘ladi. Odam ko‘zguda o‘zini ko‘rmaydi. Ko‘zguda o‘zining ko‘zlariga to‘g‘ri

<sup>11</sup> <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-ketgan-birov-edi-novella>

<sup>12</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-o-zim-bilan-o-zim-novella>

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

boqolmaydi. Qahramon ko‘zguga qaradim, ko‘zgudagi ko‘zlar meniki emas edi: ularning boqishi o‘tkir, shavqatsiz, senga bir martagina berilgan hayotni buncha abgor qilding deb qattiq tikilib turardi. Ko‘zgudagi ko‘zlar mening ko‘zlarimga aks edi. Ko‘zgudagi ko‘zlardan ko‘zlarimni yashirdim. Chekinishga yo‘l yo‘qqa o‘xshaydi. Nimadir qilish kerak. Ko‘zgudagi ko‘zlar meniki emas edi. Ko‘zgudagi ko‘zlardan ko‘zimni olib qochdim.

Ko‘zguda odam o‘tmishi, bugungi kuni va kelajagini ko‘radi. Ko‘zguda ko‘ziga qaray olgan odam hayotda qo‘ygan maqsadiga erishgan odam. Inson ko‘zguda ko‘ziga qarab savollariga javob bera olishi, o‘zini fosh qilib kelajagini qayta yaratishi mumkin. Bir martalik umr sarhisobi ko‘zguda ko‘zga qaraganda beriladi. Ko‘zgudagi ko‘zda inson taqdirini, bugungi kuni va yashashdan maqsadini anglab yetadi. Ko‘zgudan qaragan odam – bu ichimdagi “men” edim. Hayotning mayda tashvishlari aro sarosar kezayotgan, bugungi kundan ma‘no topolmayotgan, yashashning mantig‘ini anglab yetmayotgan, bugungi kuniga sig‘mayotgan, ichda isyon bilan faqat nola qilayotgan suratda esa baxtiyor – bu ichimdagi “men” edim. Faqat shu kichkina “men”ni yupatishga, taskin berishga baxtiyor qilishga keyingi hayotim yetarmikin. Ko‘zgudagi ko‘z shu savolga javob so‘rayotgan edi....

4) *“O‘ziga termulib o‘tirgan odam”* – novellasida kitobxon roviy qahramonning o‘ziga o‘zi termulgan, o‘zini o‘zi o‘qiyotgan haolatidagi tasviri orqali o‘zligiga qarayotgan, “men”ni anglash iztirobidagi shaxs kechinmalarini o‘qiydi. “Yuzim – uyqu bilan yopilgan kitob. Kitobimni o‘qimay tursin, deb uxlab yotibman”. “Tepamda birov o‘tiribdi. Boshimda, yuzini yuzimga yaqin tutib, menga diqqat bilan tikilib o‘tiribdi. Ko‘zlari hamdard, xayrxoh – uzoq vaqt meni sog‘ingan, nihoyat menga yetishib, lekin meni uyg‘otishdan ayab o‘tirgan qadrdonimning ko‘zlari”<sup>13</sup>. Mehr va iliqlikka to‘la bu nigoh unga sog‘inch va ayni paytda qo‘rquv hissini bag‘ishlaydi. Oy nuri uning yuzini ohista yoritayotganini his qiladi va bu yorug‘likda yana nimadir – anglash iztirobi, angamlari ochiladi. “Uxlayotgan bo‘lsam ham bosh uchimda mening yuzimdan o‘zini o‘qimoqchi bo‘lgan birovni ko‘rib yotibman, uning hech qanaqa BIROV emas, O‘ZIM ekanligimni bilib yotibman”.

5) *“Tanasidan ko‘ngli qolgan odam”* – bu novellada tana ehtiyoji bilan yashagan roviy qahramon iztiroblari, anglagan haqiqati tasvirlanadi. Roviya tana ehtiyojining hammasini bajardi, uni parvarishladi. “Uning hamma xohish-istaklarini

<sup>13</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-o-zim-bilan-o-zim-novella>

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

bajarish menga qonun edi. Uni deb o‘lib-tirilardim”<sup>14</sup>. Ammo bitta sinov oldida tanasi qo‘rqoqlik qildi. “Oxiri, bor-e, asli nomard ekansan, senga umrini bag‘ishlagan men – ahmoq, dedim-da, bir sakrab to‘siqdan oshib o‘tdim. Tanamning quruq o‘zi qolaverdi, yo‘lning narigi yog‘iga faqat o‘zim ketaverdim...” Inson bir umr tana ehtiyojlari bilan yashaydi, ammo tana bu (moddiy) olamniki, ruh esa boqiy olamga xos.

6) “*Ko‘nglini ko‘targan odam*” – novellasida roviy izlagan tuyg‘ularini topolmay qoladi. Bu tuyg‘ular yo‘qligidan emas, ko‘ngli ivirsib, tartibsizlik kechayotganidan edi. Qahramon bolaligida otlarni qanday sevganini eslaydi, lekin hozir bu muhabbatni o‘zida topa olmayapti. U bir paytlar qanday qilib chuqur his-tuyg‘ularni boshdan kechirganini, tarixga muhabbat tuyg‘usining yo‘qolganini his qiladi. O‘g‘li va do‘stlari bilan suhbatda bolalikdagi do‘stligi, ilk muhabbati ham o‘tmishda qolganini, ularni qaytara olmasligini tushunadi. Qahramon ruhi boy, ammo ko‘ngli unutilgan his-tuyg‘ularga to‘la ekanligini anglab, uy ko‘targanday his-tuyg‘ularini, ichki dunyosini tartibga solishga qaror qiladi.

Insonning ichki dunyosini uy ko‘tarish bilan taqqoslash asarning markaziy metaforasi hisoblanadi. U kitobxonni o‘z hayoti va o‘zini qanchalik yaxshi bilishi haqida o‘ylashga undaydi. Kundalik tashvishlar ichida biz uchun muhim narsalarni osongina yo‘qotib qo‘yishimiz mumkinligini ko‘rsatadi: “... ko‘nglimni, xuddi uy ko‘targandek, saranjom-sarishta qilishga bel bog‘ladim. O‘zi ham ko‘nglimda ming xil mayda-chuyda tuyg‘ular uyulib ketgan ekan, ularning keragini kerakka ajratguncha bo‘larim bo‘ldi. Ularni shamollatish uchun oftobga yoyganimda ko‘pi qurib, uvalanib ketdi. Lekin ularning tagidan – ko‘nglimning tubidan shunaqa tuyg‘ularim topilayotirki!.. Shunchalar badavlat ekanimni o‘zim bilmay, qashshoq-benavo yuravergan ekanman”<sup>15</sup>. Novellada insonning umr bosqichlari kabi tuyg‘ularining ham o‘zgarib borishi, hayot to‘lqinlarida boshqa hislarga adashib-uloqib ketmasligi, insonning o‘z ko‘nglini taftish qila olishi, insonlikning tayanch tuyg‘ularini saqlay bilishi, ularni boshqa tuyg‘ular hisobiga ichga ko‘mib yubormaslik kerakligini angalaymiz. Hayot bo‘stonida fasllar almashadi. Fasllar kabi tuyg‘ular ham o‘zgarib turadi. Faqat inson eng pokiza, samimiy tuyg‘ularini his qilib yashasa, boshqa tuyg‘ularga almashmasa o‘zligini saqlab qolgan bo‘ladi.

7) “*Oqib borayotgan odam*” – (*allergo*) novellasi hajmi qisqa, bitta jumla asosida butun hayot mazmuni, yashash mohiyati aks etgan. Hayot to‘lqinida har bir

<sup>14</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-o-zim-bilan-o-zim-novella>

<sup>15</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-o-zim-bilan-o-zim-novella>

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

insonning o‘z kuyi bo‘ladi, ya’ni tanlagan yo‘li, shu yo‘lda qaqnus kabi yonib-kuyib yashashi: *“Men bir kuyning to‘lqinlarida oqib kelyapman kelyapman kelyapman qalqib qalqib ketyapman ketyapman ketyapman bu kuy meni qaysi qaysi qaysi qirg‘og‘iga qachon qachon qachon tashlab ketadi bilmayman bilmayman bilmayman faqat bu kuyni o‘zim chalyapman chalyapman chal...”*<sup>16</sup> Hayot, umr to‘lqinida oqayotgan odam. Qahramon bu dunyoga oqib, to‘lib toshib keldi, bu dunyodan elkama-yelka qalqib-qalqib ketyapti. Umr deb atalgan kelish va ketish oralig‘idagi kuyni roviy chalyapti. Kuy oxiriga yetmasdan tindi: “chal...”. Uch nuqta yozuvchi boshlagan kuyni davomchilari, izdoshlari davom ettirishiga umidvorlik hissi deya tushundik. “Olib ketayotgan kuy” hayot oqimini, uning beqarorligini va kutilmagan burilishlarini ifodalaydi.

Ahmad A‘zam novellalarida insonning ichki dunyosiga murojaat etib, adabiy an‘analarni yangiladi va adabiy til imkoniyatlarini kengaytirdi. O‘ziga o‘zi gapirgan odamlar bilan nasrni birmuncha odamga, odamning ichki dunyosiga yaqinlashtirdi. Novellalarda inson dardi, iztirobi, adabiyot uchun adabiy jumboq, adabiy makon bo‘lgan inson ruhiyatini tadqiq qildi.

Yozuvchi Nazar Eshonqul aytganidek, odam fikrlayotganda o‘zi bilan o‘zi gaplashadi. Fikr qilish uyg‘onishning boshlanishi, balki uyg‘onishning o‘zi hamdir. Odam o‘zini o‘zi tadqiq qilyapti ekan, demak uyg‘onyapti. Ahmad A‘zam novellalarida uyg‘onayotgan va uyg‘ongan qalb, ong, tafakkurning tirik so‘zlarda tillashuvini o‘qib o‘zimizda o‘zimiz haqimizda savollar tug‘iladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad A‘zam. Adabiy asar til hodisasi. Adabiy suhbat//Yoshlik, 2012. №6.
2. Eshonqul N. O‘ziga o‘zi gapirayotgan odam // Kitob bandasi. – T.: Akadernashr. 2022.
3. Faxriyor. Ham adib, ham munaqqid, ham tarjimon. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborakin/ahmad-azam-haqida.html>
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akadernashr. 2013.
5. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-gul-kotarib-ketayotgan-erkak-novella>
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-bir-kam-dunyo-novella>
7. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-ketgan-birov-edi-novella>
8. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-o-zim-bilan-o-zim-novella>

<sup>16</sup> <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/ahmad-a-zam-1949/ahmad-a-zam-o-zim-bilan-o-zim-novella>